

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 137 (1198), 2024-yil 10-iyul, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



XALQARO MEHNAT TASHKILOTI BILAN SAMARALI HAMKORLIK YUQORI BAHOLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 9-iyul kuni mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo‘lib turgan Xalqaro mehnat tashkiloti bosh direktori Jilber Ungboni qabul qildi.



BMTning ushbu nufuzli instituti bilan hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

XMT bosh direktori samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, O‘zbekistonning mehnatkashlar huquqlarini ta‘minlash, ish o‘rinlarini yaratish va xalqaro konvensiyalarni implementatsiya qilish borasidagi yutuqlariga yuqori baho berdi.

Shu munosabat bilan o‘z tashrifini O‘zbekiston rahbari boshchiligidagi amalga oshirilayotgan samarali islohotlarni qo‘llab-quvvatlash ifodasi deb atadi.

XMT mamlakatimiz tajribasini xalqaro miqyosda o‘rganish va qo‘llash uchun muvaffaqiyatli model sifatida ko‘rayotgani ta‘kidlandi. Joriy yilning iyun oyida O‘zbekiston tashkilotning Ma‘muriy kengashiga saylanishi buning e‘tirofi bo‘ldi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston va XMT o‘rtasidagi hamkorlik sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Tashkilot ko‘magida O‘zbekistonda mehnat sohasida 40 dan ortiq normativ hujjat qabul qilindi, 22 ta xalqaro konvensiya ratifikatsiyalandi.

Ijtimoiy adolat tamoyillarini ilgari surish bo‘yicha, shu jumladan, “Ijtimoiy adolat global koalitsiyasi” doirasida qo‘shma chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimligi qayd etildi.

Uchrashuv yakunida 2026-2030-yillarda mo‘ljallangan yangi Mamlakat dasturini ishlab chiqish va qabul qilishga kelishib olindi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI YAPONIYA DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 9-iyul kuni Yaponiya xalqaro hamkorlik banki (JBIC) raisi Tadashi Maeda boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Ushbu yetakchi moliyaviy institut bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish va Yaponiya kompaniyalari bilan kooperatsiya loyihalarini ilgari surish masalalari ko‘rib chiqildi.

2019-yil dekabr oyida Yaponiyaga amalga oshirilgan oliy darajadagi tashrif ikki tomonlama munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqib, amaliy mazmun bilan boyitgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘zaro savdo va Yaponiyaning O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ri to‘g‘ri investitsiyalari hajmi oshib bormoqda, yangi qo‘shma korxonalar tashkil etilmoqda.

JBICning mamlakatimizda ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi muhim o‘rni qayd etildi. Bugungi kunda neft-kimyo, to‘qimachilik sanoati, energetika va infratuzilmani modernizatsiya qilish kabi sohalarni qamrab olgan qo‘shma loyihalar portfeli 3,7 milliard dollardan oshdi.

O‘ZA

GEOLOGIYA SOHASIDAGI ISHLAR HAQIDA AXBOROT BERILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 9-iyul kuni geologiya sohasidagi ishlar va investitsiya loyihalari ijrosi bilan tanishdi.

Mutasaddilar yil boshida belgilangan vazifalarning bajarilishi yuzasidan axborot berildi.

Jumladan, o‘tgan 6 oyda qariyb 3 million tonna ko‘mir qazib olingan. “Sharq’unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatida mexanizatsiyalashgan yer osti komplekslari to‘liq ishga tushirilib, ko‘mir qazib chiqarish bir kecha-kunduzda 3,5 ming tonnaga yetkazilgan.

Ikkinchi yarim yillikda yana 5 million tonnadan ziyod ko‘mir qazib olinishi rejalashtirilgan. Shundan 1,8 million tonna issiqlik elektr stansiyalariga, 1 million tonnadan ortig‘i aholiga, 540 ming tonna ijtimoiy muassasalarga yetkazib beriladi, 1,8 million tonna mahalliy ko‘mir birja savdolariga chiqariladi.

Umuman, bu yil ko‘mir qazib chiqarish o‘tgan yilga nisbatan 1,4 million tonnaga

ko‘p bo‘lib, import hajmi sezilarli qisqardi.

Tarmoqda qator investitsiya loyihalari ham amalga oshirilmoqda. Xususan, Nishbosh konini o‘zlashtirishga Xitoyning “Henan” kompaniyasi 400 million dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya kiritishi ko‘zda tutilgan. Bu loyiha samarasida yer osti usulida yiliga 8 million tonnagacha ko‘mir qazib chiqarish va shundan 5 million tonnasini boyitish rejalashtirilgan.

Yurtimizda kaolinning ham katta zaxirasi mavjud. Hozirda konlarni o‘zlashtirishga jalb qilingan tadbirkorlar tomonidan 396 ming tonna mahsulot qazib olinmoqda. Bu juda kam.

Shu bois, 2024-2025-yillarda Geologiya dasturi doirasida 7 ta kon tashabbuskorlarga taklif etiladi va bu orqali qazib olish hajmi 2 million 700 ming tonnaga yetkaziladi.

Toshkent viloyatidagi “Apartak-3” koni negizida Turkiyaning “Bab Energy ve Petrol Urunleri A.S.” kompaniyasi bilan hamkorlikda ish olib borilmoqda. 15 million dollarlik mazkur loyiha natijasida 40 ta yangi ish o‘rni yaratilib, yiliga 70 ming tonna boyitilgan kaolin tayyorlanadi.

Shu yil 29-aprel kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda davlatimiz rahbari sanoat uchun muhim minerallar masalasiga alohida e‘tibor qaratgan edi. Shundan so‘ng bu yo‘nalishga ixtisoslashgan “O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi. Ilmiy va texnologik tadqiqot hamda geologiya-qidiruv ishlariga qaratilgan 40 million dollarlik 34 ta loyiha ishlab chiqildi.

Bu tarmoqqa yetakchi xorijiy kompaniyalar va malakali ekspertlarni jalb

qilib, o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish choralari ko‘rilmoqda. Jumladan, o‘tgan oyda Koreya Respublikasi Prezidentining mamlakatimizga tashrifi doirasida “KIGAM” instituti bilan noyob mineralarni izlash, texnologik tadqiqotlar o‘tkazish va raqamlashtirish bo‘yicha 10 million dollarlik grant loyihasi yuzasidan kelishuv imzolandi.

Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorlikdagi umumiy qiymati 800 million dollarlik loyihalarning borishi haqida ham axborot berildi.

Davlatimiz rahbari geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirish, olingan xomashyolardan qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

O‘ZA

IJTIMOYIY ADOLAT TAMOYILLARINI MUSTAHKAMLASH SARI

Poytaxtimizda “Bandlik va ijtimoiy himoyani uyg‘unlashtirish orqali O‘zbekistonda ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazildi.

Unda O‘zbekiston Respublikasi Senati Raisi, Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo‘yicha Milliy komissiya raisi Tanzila Norboyeva, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) Bosh direktori Jilber Ungbo, vazirlik va idoralar, NNT, diplomatik korpus vakillari ishtirok etdi.

So‘zga chiqqanlar keyingi yillarda davlatimiz rahbari boshchiligidagi O‘zbekistonda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, odam savdosiga qarshi

kurashish, undan jabrlanganlarni har tomonlama himoya qilish, majburiy mehnatning oldini olish va unga to‘liq barham berishning tashkiliy, huquqiy asoslarini mustahkamlash, bu borada davlat va nodavlat tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, mazkur yo‘nalishlarda faoliyat yuritayotgan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlarga to‘xtalib o‘tdi.

Davomi 2-betda

Munosabat

TURKIY MUSHTARAKLIK

Tarixiy ildizlari bir, orzu-intilishlari hamohang

O‘zbek va ozar xalqlarini azaliy do‘stlik, birodarlik va qardoshlik rishtalari o‘zaro bog‘lab turadi. Xalqlarimizning tarixiy ildizlari, bugungi orzu-intilishlari mushtarak, madaniyati, dini va urf-odatlari bir-biriga juda yaqin.



sifatida muntazam ishtirok etib kelmoqda, turli xalqaro tadbirlarda qatnashyapti.

Qardosh xalqlarning madaniyati va san‘ati asrlar davomida yonma-yon rivojlanib, bir-birini o‘zaro boyitib va to‘ldirib kelmoqda. Ozarbayjonda o‘zbek adabiyotining mumtoz vakili, shoir, mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy ijodiga qiziqish yuqori.

Davomi 3-betda

Nuqtayi nazar

O‘ZBEKISTON VA SHHT:

O‘ZARO MANFAATLI, ISTIQBOLLI YO‘NALISHLAR

O‘zbekistonning jahon hamjamiyati hamda iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqei ortib bormoqda. Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi puxta ishlab chiqilgani, iqtisodiy islohotlar maqsadi hamda vazifalari, ularni amalga oshirish yo‘llari aniq va to‘g‘ri ko‘rsatib berilgani muvaffaqiyatlar salmog‘ida muhim ahamiyat kasb etmoqda.



Globalashuv sharoitida xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvni kuchaytirish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlashning dolzarb masalalaridan. Xalqaro iqtisodiy integratsiyani afzalliklaridan foydalanish milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarishni rag‘batlantirish bilan birga, eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Hududiy joylashuvi jihatidan yaqin bo‘lgan mamlakatlarning integratsiyalashuvi iqtisodiy, ijtimoiy,

madaniy va boshqa sohalarda o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish asosida mahsulotlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchi almashinuvi, ijtimoiy masalalarni hamkorlikda hal etish, iqtisodiy o‘sish sur‘atini barqarorlashtirish, xalqaro savdo munosabatlari qulay sharoiti yaratish kabi afzalliklar ko‘lamini yanada kengaytirishga imkon yaratadi.

Davomi 3-betda

Yangicha yondashuvlar



MURAKKAB TO‘QQIZ BOSQICHLI JARAYONDAN VOZ KECHILDI

4

